

SUG'URTA TO'LOVLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yakubov Toxir Yusufdjanovich

mustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0009-0001-2390-1480>

E-mail: tokhir.yakubov@mail.ru

Annotatsiya. Tezisdagi sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Elektron murojaat, API integratsiyasi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan to'lov vositalarining to'lovlar tezkorligi, shaffofligi hamda operatsion samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Sug'urta to'lovlari tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta to'lovlari, raqamlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, InsurTech, sun'iy intellekt, API integratsiyasi, avtomatlashtirish, sug'urta bozori..

Sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi sug'urta hodisalari yuz berganda to'lovlarning o'z vaqtida, shaffof va asoslangan holda amalga oshirilishiga bevosita bog'liq. Biroq hujjatlarni qo'lda qabul qilish, zarar miqdorini an'anaviy usullarda baholash va axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi sug'urta to'lovlari jarayonining cho'zilishiga hamda operatsion xarajatlarning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Sug'urta to'lovlarini raqamlashtirish elektron murojaat, avtomatik hujjat tekshiruv, sun'iy intellekt, API integratsiyasi va raqamli to'lov vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Mazkur texnologiyalar to'lovga oid murojaatlarni tezkor qayta ishlash, inson omili ta'sirini kamaytirish, firibgarlik holatlarini aniqlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu sababli sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, texnologik yechimlarni sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

C.-L. Chen va hammualliflar blokcheyn hamda smart-kontraktlar asosida kuzatiladigan onlayn sug'urta to'lovlari tizimini taklif qilgan. Mazkur yondashuv sug'urta hodisasi, tibbiy ma'lumotlar va to'lov jarayonlarini yagona himoyalangan tizimda qayd etish, ma'lumotlarni o'zgartirish xavfini kamaytirish hamda belgilangan shartlar bajarilganda to'lovni avtomatik amalga oshirish imkonini beradi [1].

Q. Wang va hammualliflar transport vositasiga yetkazilgan zarar hamda shaxsiy jarohatlar bo'yicha sug'urta to'lovlarini qayta ishlash uchun smart-kontraktlarga asoslangan ikki xil modelni ishlab chiqqan. Mualliflar mazkur mexanizm murojaatni

qabul qilish, tekshirish, tahlil qilish va to'lovni amalga oshirish bosqichlarini avtomatlashtirib, vositachilik va operatsion xarajatlarni kamaytirishini asoslagan [2].

F. Lang va L. Riegel sug'urta hodisalari haqida onlayn xabar berish kanallaridan foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli xizmatning foydaliligi va undan foydalanish qulayligi mijozlar qabuliga ijobiy ta'sir qiladi, biroq murakkab va katta zararli hodisalarda mijozlar mutaxassis bilan bevosita muloqotni afzal ko'radi. Shu sababli sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishda to'liq avtomatlashtirish emas, balki raqamli va an'anaviy xizmatlarni birlashtiruvchi omnikanal yondashuv maqsadga muvofiq [3].

Sug'urta to'lovlarini raqamlashtirish zarurati sug'urta bozori operatsiyalari hajmining ortib borishi bilan bevosita bog'liq. Sug'urta mukofotlari va to'lovlari hajmining o'sishi sug'urta hodisalari bo'yicha murojaatlarni qabul qilish, hujjatlarni tekshirish, zararni baholash va to'lovlarni amalga oshirish jarayonlariga tushadigan yuklamani kuchaytiradi. Mazkur jarayonlarni an'anaviy tartibda tashkil etish esa to'lov muddatlarining uzayishi, ma'muriy xarajatlarning ortishi va inson omili bilan bog'liq xatolarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasi

Yillar	Sug'urta mukofotlari, trln so'm	Sug'urta to'lovlari, trln so'm	To'lov darajasi, %
2021	3,73	1,23	33,0
2022	6,23	2,60	41,7
2023	8,06	2,02	25,1
2024	9,77	2,20	22,6
2025	13,46	2,99	22,2

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda sug'urta mukofotlari hajmi 3,73 trln so'mdan 13,46 trln so'mga yetib, 3,6 baravarga oshgan. Sug'urta to'lovlari esa 1,23 trln so'mdan 2,99 trln so'mga ko'paygan. Bu holat sug'urta kompaniyalarida qayta ishlanadigan murojaatlar, elektron va qog'oz hujjatlar, ekspertiza natijalari hamda to'lov operatsiyalari hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi.

2022-yilda sug'urta to'lovlari 2,60 trln so'mga yetib, to'lov darajasi 41,7 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda mazkur ko'rsatkich pasayib, 2025-yilda 22,2 foizga teng bo'lgan. Biroq to'lov darajasining pasayishi sug'urta to'lovlari tizimi samaradorligining avtomatik ravishda oshganini anglatmaydi. Chunki ushbu ko'rsatkich sug'urta portfeli tarkibi, tariflar, mukofotlar hajmi va sug'urta hodisalarining takrorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli raqamlashtirish samaradorligini baholashda to'lovlarni ko'rib chiqish muddati, bitta murojaatga

sarflanadigan xarajat va avtomatik amalga oshirilgan to'lovlar ulushidan foydalanish lozim.

Sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishning tashkiliy mexanizmi murojaatni elektron qabul qilish, hujjatlarni avtomatik tekshirish, zararni masofadan baholash, ma'lumotlarni tashqi axborot tizimlari orqali tasdiqlash va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlarini yagona platformada birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda mobil ilovalar va elektron FNOL sug'urta hodisasi haqida tezkor xabar berish imkonini bersa, OCR texnologiyasi hujjatlardagi ma'lumotlarni avtomatik o'qish va solishtirishga xizmat qiladi. API integratsiyasi esa banklar, davlat organlari, tibbiyot muassasalari va servis markazlari ma'lumotlaridan real vaqt rejimida foydalanish imkonini yaratadi.

Mazkur mexanizmning iqtisodiy samarasi, birinchi navbatda, takroriy operatsiyalar va qo'lda bajariladigan ishlar hajmining qisqarishida namoyon bo'ladi. Standart va kichik miqdordagi murojaatlarni avtomatik qayta ishlash orqali mutaxassislarning ish yukini kamaytirish, murakkab va yuqori riskli holatlarga ko'proq resurs yo'naltirish mumkin. Sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlari esa murojaatlarni risk darajasiga qarab guruhlash, firibgarlik alomatlarini aniqlash va zarar miqdorini dastlabki baholash imkonini beradi.

Sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishda barcha murojaatlarni bir xil tartibda avtomatlashtirish maqsadga muvofiq emas. Past riskli va standart to'lovlar to'liq avtomatik tartibda amalga oshirilishi, katta miqdordagi, murakkab yoki shubhali holatlar esa mutaxassis nazoratiga yo'naltirilishi lozim. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv to'lovlarning tezkorligini oshirish bilan birga sug'urta kompaniyasining moliyaviy xavfsizligini ham ta'minlaydi.

Tahlil natijalari sug'urta to'lovlarini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi tarkibiy qismlarga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi: yagona raqamli murojaat kanali, avtomatik hujjat tekshiruvi, tashqi ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya, riskka asoslangan saralash, avtomatik zarar baholash va tezkor to'lov tizimi. Mazkur elementlarning o'zaro uyg'unligi to'lov muddatini qisqartirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, qarorlar shaffofligini oshirish hamda mijozlarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.

Sug'urta to'lovlarini raqamlashtirish murojaatlarni tezkor ko'rib chiqish, hujjatlarni avtomatik tekshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va to'lovlar shaffofligini oshirish imkonini beradi. Buning uchun elektron murojaat, API integratsiyasi, sun'iy intellekt va avtomatik to'lov vositalarini yagona platformada birlashtirish zarur. Past riskli murojaatlarni avtomatik, murakkab holatlarni esa mutaxassis nazorati asosida ko'rib chiqish sug'urta to'lovlari tizimining tezkorligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chen C.-L., Deng Y.-Y., Tsaur W.-J., Li C.-T., Lee C.-C., Wu C.-M. A Traceable Online Insurance Claims System Based on Blockchain and Smart Contract Technology // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 16. – Art. 9386. – 39 p. – DOI: 10.3390/su13169386.
2. Wang Q., Lau R. Y. K., Si Y. W., Xie H., Tao X. Blockchain-Enhanced Smart Contract for Cost-Effective Insurance Claims Processing // Journal of Global Information Management. – 2023. – Vol. 31, No. 7. – P. 1–21. – DOI: 10.4018/JGIM.329927.
3. Lang F., Riegel L. Acceptance of Online Customer Channels for Damage Claims in Germany // Information Technology and Management. – 2025. – Vol. 26, No. 1. – P. 101–116. – DOI: 10.1007/s10799-023-00404-z.